


TEXIKA FANLARINI O'QITUVCHILARINING MEHNAT FAOLIYATIDAGI ASOSIY JIHATLAR

Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi
(PhD) abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com,
FDTU, Energetika muhandisligi kafedrası
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17586905>

Bugungi kunda ta'lim tizimida texnika fanlarini o'qitish jarayoni nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki amaliy ko'nikma va innovatsion tafakkurni shakllantirishga ham qaratilgan. Texnika fanlari o'qituvchilari zamonaviy texnologiyalarni chuqur bilishi, ishlab chiqarish jarayonlari va muhandislik yondashuvlarini o'quvchilarga yetkazishda faol, ijodkor va yangilikka intiluvchi bo'lishi zarur. Ularning mehnat faoliyati o'qituvchilik mahorati, metodik tayyorgarligi, texnik tafakkuri hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llay bilish darajasi bilan belgilanadi. Texnika fanlari o'qituvchisining kasbiy faoliyatida muhim o'rin egallaydigan jihatlar — bu o'quvchilarda texnik tafakkurni rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, ilg'or o'qitish metodlarini tatbiq etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish hamda ilmiy-ijodiy izlanishlarni yo'lga qo'yishdir.

Texnika fanlari o'qituvchisining mehnat faoliyati ilmiy, pedagogik, ijtimoiy va ma'naviy jihatlar majmuasiga asoslanadi. Ushbu jihatlarning doimiy ravishda integratsiyalab qo'llash pedagogik tomondan mehnat unumdorligini yuqori bo'lishiga asosiy turtki sanaladi. Boisi, talabalar bilan o'zaro ishlay olishlikda pedagogik mahorat, takt talab qilsa, mutaxassislikda asosiytalablarga erishish ilmiylikka bog'liqdir. Ta'lim jarayonlarida pedagogik boshqaruv va talabalar bilan ularni tushunib ishlashlikda ijtimoiylikni o'rni bo'lakcha bo'lib, jamiyat uchun xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlashda ma'naviyat asosiy ustun vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham, pedagog mehnat faoliyatini doimiy boyitib, to'ldirib borishligi zarur hisoblanadi. 1-rasmda ushbu jihatlar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi diagramma keltirilgan.



1.3-rasm. Ta'lim beruvchining mehnat faoliyatidagi asosiy jihatlar

Oliy o'quv yurtlaridagi texnika fanlari o'qituvchisining mehnat faoliyati qamrovida pedagogik jihatlariga alohida yondoshadigan bo'lsak, bu - o'qituvchi tomonidan texnika fanlarini pedagogik mahorat bilan tashkillash, o'qitishning metodik usullaridan unumli foydalanish va har bir darsga pedagogik takt bilan yondoshish lozimligidir. Buning uchun o'qituvchi, dars mavzusini

tushuntirishga mos pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlashi, mavzuni uqtirishning sodda usullariga yondoshishi lozimdir.

Texnika fanlari o'qituvchisining mehnat faoliyati davomida ilmiy jihatni ahamiyati juda muhim hisoblanib, texnika rivojlanishi kun sayin o'sib borayotganligini hisobga olishi, doimo yangi texnik innovatsion natijalarni o'qitadigan faniga integratsiyalab borishi zarur. Bu jihatda ta'lim beruvchi talabadan doimo oldida yurishi, ilmiy bilimlarini yangiliklar bilan boyitishi kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda joriy etilayotgan oliy ta'lim masalalariga taaluqli qaror, farmon va qonunlarda ham oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchining bilim-ko'nikmasi, pedagogik ko'nikmasini doimiy baholab borishning zamonaviy usullari zarurligi qayd etilgan.

Ta'lim jarayonlarida har bir yo'nalish o'qituvchisi, ijtimoiy tamoyil asosida ish yuritishi, lozimdir. Boisi yaxshi pedagog dars jarayonlarida boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishi, baholashda odillik va adolatlilikni yo'lga qo'ygandagina talaba va o'qituvchi o'rtasida samarali muloqot paydo bo'ladi.

O'qituvchi ma'naviyatining shogirdlariga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Ma'naviy madaniyati yuqori bo'lgan o'qituvchilar o'z o'quvchilarida ham shunday fazilatlarini tarbiyalaydilar. Jamiyatning kelajagi bitiruvchilarning qanday inson bo'lishiga bog'liq. Pedagogik faoliyat o'qituvchidan kompleks yondashuvni talab qiladi. U o'z sohasi bo'yicha nafaqat chuqur bilimga ega bo'lishi, balki o'qituvchilik mahorati ham rivojlangan bo'lishi, har bir o'quvchiga yondashuv topa bilishi, ularga o'rnak bo'la olishi kerak.

Zamonaviy sharoitda texnika oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari o'rtasida ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi alohida dolzarbdir. O'qituvchilar talabaga mavzu yuzasidangina bilim berib qolmay, ularni mustaqil fikrlashga, erkin ijod qilishga o'rgatishlari kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. B. Elov, A. Dauletov, Y. Sucharitha, F. Khalilova, M. Latipova and M. Abdullayeva, "An Intelligent Traffic Management of Vehicles using Deep Learning Approach in Smart Cities," *2025 3rd International Conference on Integrated Circuits and Communication Systems (ICICACS)*, Raichur, India, 2025, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICICACS65178.2025.10967703.
2. Abdullaeva.M.A. (2022). IMPROVEMENT OF TRAINING OF SEMICONDUCTOR RELAY PROTECTION DEVICES BY NEW INTERACTIVE METHODS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(10), 28–33. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crijp-03-10-05>
3. N. Akramova, S. Akhmedov, M. Mukhtorova, F. Nasretdinova, M. Abdullayeva and D. Dhabliya, "Leveraging Deep Learning for STEM Education in Higher Secondary Grades," *2025 World Skills Conference on Universal Data Analytics and Sciences (WorldSUAS)*, Indore, India, 2025, pp. 1-6, doi: 10.1109/WorldSUAS66815.2025.11198997.
4. N. Abdullayeva, A. Gofurova, M. Abdullayeva and D. Dhabliya, "Designing AI-Enhanced Educational Games for Cognitive Skill Development," *2025 World Skills Conference on Universal Data Analytics and Sciences (WorldSUAS)*, Indore, India, 2025, pp. 1-6, doi: 10.1109/WorldSUAS66815.2025.11199084.
5. Abdullayeva M. Development of new interactive methods suitable for teaching semiconductor relays //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 452. – C. 03015.

6. Muxtasar Abdullayeva, Texnika fanlarini samarali o'zlashtirishda mustaqil ta'limning ahamiyati. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi № 9 -son, 2023/12/15. 559-564

